PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

RAXMATULLAYEVA DURDONA RAVSHANOVNA

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

13.00.05 – Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 378:005.336.2

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (DSc)

Contents of dissertation of the Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna
Innovatsion yondashuv asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....3

Рахматуллаева Дурдона Равшановна
Методика формирования предпринимательских компетенций у учащихся профессиональных образовательных учреждений на основе инновационного подхода..... 33

Rakhmatullayeva Durdona Ravshanovna
Methodology for the formation of entrepreneurial competence and professional training in an innovative approach.....67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованних работ
List of published works.....72

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

RAXMATULLAYEVA DURDONA RAVSHANOVNA

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

13.00.05 – Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Ped238 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Professional ta’limni rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ipitvet.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Xodjabayev Anarbay Rustamovich** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muslimov Narzulla Alixanovich** pedagogika fanlari doktori, professor
	Yuldashev Maqsudjon Abdullayevich pedagogika fanlari doktori, professor
	To‘xtayeva Zebo Sharifovna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “____”____soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: +998 71 246-92-17; faks: +998 71 246-90-37, E-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta’limni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: +998 71 246-92-17; faks: +998 71 246-90-37).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___”_____kuni tarqatildi.
(2023 yil_____ dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

R.X.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., prof., akademik

S.Yu.Ashurova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d., prof.

H.Sh.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish nafaqat milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan sanoat ishlab chiqarish sur’atlarini oshirishda, aholini ish bilan bandligini ta’minlash va ularning turmush darajasini oshiriish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalarini hal etishda yetakchi o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda ham ijtimoiy masalalarni hal etish va aholining ish bilan bandligini ta’minlash bilan birga, mamlakatdagi yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ham salmoqli oshishiga xizmat qilmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YUNIDO), Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Osiyo va Islom taraqqiyot banklari (AIDB), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SCO) kabi bir qancha xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish qo‘llab-quvvatlanib, tadbirkorlik faoliyati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasiga aylanib, borgan sari asosiy segment sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon globallashuv sharoitida yoshlar oldiga ta’lim olish bilan birga qo’yilayotgan asosiy talablardan biri – egallagan kasbi bo’yicha tadbirkorlik faoliyatini yuritish va dunyo talablari darajasida har tomonlama kompetentli mutaxassis bo’lib yetishish zaruratidir. Mehnat bozorida u ishchi kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish vazifasini oldinga qo’ymoqdaki, bunda mazkur mutaxassislarning malaka darajasi ular bajaradigan kasbga oid ishlarning murakkabligidan yuqoriroq bo‘lishi, bo’lajak mutaxassis nafaqat mamlakatdagi ishlab chiqarish va iqtisodiyotning hozirgi holatiga javob bera oladigan, balki ishlab chiqarishning tez o‘zgaruvchan sharoitlari va texnologiyalariga ham tezkorlik bilan ta’sir ko‘rsata olish imkoniyatini beradigan kasbiy tayyorgarlikdagi tadbirkorlik qismining ahamiyatini kuchaytirishga asoslanadigan ishchi kadrlarning kasbiy-malakali tuzilmasini rivojlantirish zarur. Amerika Qo‘shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID), The Young American Business Trust (YABT), Global Entrepreneurship Monitor (GEM) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar jarayonida o‘quvchilarni kompetentli mutaxassis sifatida namoyon bo’lishida tadbirkorlik g‘oyalarini shakllantirish, innovatsion yondashuv asosida ta’lim olish bilan birgalikda o‘quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha zarur kompetensiyalarni shakllantirish va ularni kelgusida kasbi bo’yicha o‘z biznes faoliyatini tashkil etish yuzasidan metodik qo‘llab-quvvatlash tadbirlari amalga oshirildi, buning sababi esa ushbu yo‘nalishning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi asos bo‘ldi.

Mamlakatimizda ham tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini, qishloq joylaridagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ish bilan bandligini ta’minlash, mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy

o‘zgarishlarda chuqur bilimli, yuksak saviyali, mustaqil fikrlaydigan yoshlarning bu boradagi ishtirokini ta’minlash bugungi kundagi ustuvor vazifalarni bajarishda muhim o’rin tutadi. «Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart»[1]. Shu nuqtai nazardan, professional ta’lim muassasalari o’quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi, uning didaktik imkoniyatlari hamda o‘quv-uslubiy ta’minotini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli, 2019 yil 6 sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5812-sonli, 2021 yil 21 apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Yoshlarda va ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va ta’lim muassasalari, jumladan, AQShda “Kichik biznes boshqarmasi” (Small Business Administration – SBA)[3] ixtisoslashtirilgan tashkiloti va Uorton biznes maktabi[4],

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. –T.: 2019.

[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi https://free-apply.com/university/1080400233, https://www.ediindia.org/, https://www.kcl.ac.uk/entrepreneurship/skills-programme https://thegedi.org/germany/, https://www.mastersportal.com/study-options/270155862/entrepreneurship-china.html, http://www.jigyo.ac.jp/international/english/, http://www.rusacad.ru/

[3] https://www.sba.gov/business-guide/plan-your-business/fund-your-business

[4] https://www.wharton.upenn.edu/

Entrepreneurship Development Institute (Hindiston), School of Business and Entrepreneurship of Bath Spa University (Angliya)[5], Cologne Business School (Germaniya)[6], Hong kong ust business school (Xitoy)[7], Goodman School of Business (Kanada)[8], Tadbirkorlar akademiyasi (Rossiya), Budapesht biznes maktabi (Budapesht)[9], Xalqaro Biznes Akademik Kolleji (Qozog‘iston)[10], Tashkent Academy of Business Administration va O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi (Toshkent)[11] kabi nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari va ta’lim muassasalarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Tadqiqot muammosiga oid qator muhim ilmiy natijalar sifatida o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirish muammosi yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida amaliy mashqlar va kundalik hayotdagi ko‘nikma va tajribalarni rivojlantirish orqali tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish, biznes-reja tuzish va ularni baholash tizimi yaratilgan (Xalqaro biznes akademik kolleji, Qozog‘iston); o‘quvchilarning biznesni yuritish ko‘nikmalari, innovatsion va global miqyosida iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan g‘oyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish usullari ishlab chiqilgan (AQSh); tadbirkorlik ko‘nikmalari va tadbirkorlik ta’limi tushunchasi, muvaffaqiyatga erishish yo‘llari va innovatsiyalarni yaratish bo‘yicha yo‘l xaritalari ishlab chiqilgan (Angliya); o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va maslahatlar berish hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish bo‘yicha “Yosh tadbirkorlar” konstalting xizmati tashkil etilgan (Kanada), biznesni yuritish va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda biznesni muvaffaqiyatli olib borish psixologiyasi qoidalari takomillashtirilgan (Germaniya); dunyo ko’lamida tadbirkorlik faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish loyihalari takomillashtirilgan (Xitoy); o‘qitishning noa’anaviy shakllari, ishbilarmonlik o‘yinlari va zamonaviy didaktik vositalari asosida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish metodlari shakllantirilgan (Rossiya), biznes faoliyatini yuritishda muvaffaqiyatga erishish yo‘llari tizimlashtirilgan (Budapesht); start-up g‘oyalarni yaratish va saralash jarayoni hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritishda kompetensiyalarni shakllantirish jarayonlari yaratilgan (O‘zbekiston).

Germaniya, AQSh, Angliya, Xitoy, Rossiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish tizimini modernizasiyalash borasida katta ishlar olib borilmoqda. Ularda qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish texnologiyalari (simulatsion o‘qitish, ishbilarmonlik va rolli o’yinlar, mobil-learning, o‘zaro o‘qitish yoki o‘zaro maslahat) professional ta’lim muassasalari o’quvchilarida tadbirkorlik

[5] https://www.bathspa.ac.uk/courses/ug-business-and-management-entrepreneurship/;
[6] https://karandash.ua/countries/germany/cologne-business-school/
[7] http://www.bm.ust.hk/en-us/the-school/mission
[8] https://brocku.ca/goodman/
[9] https://amp.google-info.org/6526577/1/budapeshtskaya-shkola-biznesa.html#article
[10] https://cmab.kz/index.php/obuchenie/shkola-predprinimatelstva-i-biznesa
[11] https://yoshtadbirkor.uz/uzbek, chamber.uz

kompetensiyalarini shakllanishiga va ularning intellektual rivojlanishiga ko'maklashmoqda hamda ijodiy o'sishi, har tomonlama individual yuksalishini ta'minlamoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kasb-hunar va professional ta'limning shakllanishi va rivojlanishi, kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasini takomillashtirish bo'yicha R.X.Jo'rayev, Sh.E.Qurbonov, X.F.Rashidov, A.R.Xodjabayev, U.I.Inoyatov, D.D.Sharipova, N.A.Muslimov, Z.K.Ismailova, Q.Olimov, S.Yu.Ashurova, M.B.Urazova, J.A.Hamidov[12] va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Kasb-hunar ta'limida "kompetensiya" va "kompetentlik" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini o'rganish va tahlil qilish, uni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov va boshqa olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, xorijiy mamlakat olimlaridan R.Boyasis, K.Kameron, R.Kuinn, R.Marr, Dj.Raven, S.Uiddet, S.Xolliford, V.I.Baydenko, A.A.Verbiskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova, A.V.Xutorskiylar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari va uni rivojlantirish muammolari bo'yicha B.Yu.Xodiev, S.G'ulomov, Q.Abdurahmonov, Q.Muftaydinov, Z.Ya.Xudayberdiev, G.Q.Abdurahmonova, J.Urmanov, M.R.Boltaboev, M.S.Qosimova, O.Aripov[13], U.G'ofurov, N.S.Kasimova[14] va boshqalar; xorijiy mamlakat olimlaridan R.Cantillon, A.Smith, J.B.Sey, J.A.Schumpeter, G.A.Hosking, R.Hisrich, J.Ch.McConnell va boshqalar tomonidan tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari va ijtimoiy ahamiyati bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

---

[12] Djurayev R.X. Organizatsionno-pedagogicheskie osnovi intensifikatsii sistemi professionalnogo podgotovki v uchebnix zavedeniyax professionalnogo obrazovaniya. Avtoref. diss … dok.ped.nauk. – T.: 1995. 43 s.; Xodjaboyev A.R. Nauchno pedagogicheskie osnovi uchebno-metodicheskogo kompleksa podgotovki uchitelya truda. Dis. dok. ped. nauk. –T.: 1992. -406 s.; Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy – metodik asoslari.: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. –B. 275.; Sharipova D. Ispolzovanie zdorovesberegayushix texnologiy v sisteme neprerivnogo obrazovaniya v selyax duxovnonravstvennogo i kulturnogo razvitiya podrastayushego pokoleniya. Monografiya. – Tashkent: Fan va texnologiyalar, 2014. –116 s.; Urazova M.B. Bo'lajak kasb ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. Ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoreferati. – T.: 2015.78 b.; Hamidov J.A Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qituvchining zamonaviy didaktik vaositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. Ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – T.: 2017. 70 b.

[13] Aripov O. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. –T.: 2020. –B.253.

[14] Xodiyev B.Yu. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: TDIU, 2000. –B. 338.; G'ulomov S.S Tadbirkorlik va kichik biznes – T.: Sharq, 2002; Abduraxmanov K.X. i dr. Formirovanie i sovershenstvovanie politiki zanyatosti naseleniya v malom biznese i chastnom predprinimatelstve. Monografiya. - T.: «Iqtisodiyot», 2013. –S 52.; Abduraxmanova G.Q. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta'minlashni takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: TDIU, 2016; Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Iqt. fan.dok….diss. T.: O'zMU. 2004. -276 b.; J.Urmonov Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini solik mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqt.fan.dok. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T.: BMA. 2018. -70 b.; Xamroyev X. Tadbirkorlik asoslari. – T.: Yangi nashr, 2010; Egamberdiev T.E., Xo'jaqulov H. Kichik biznes va tadbirkorlik – T.: Ma'naviyat, 2003. G'afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2017. – 138-b.;

Bugungi kunda o‘quvchilarda tadbirkorlik bilimlarni shakllantirish omillari va uning pedagogik xususiyatlari bo‘yicha Z.Xudoyberdiev, K.Xomitov, N.Artikova[15] va A.Nizamovlarning tadqiqotlarida, o‘quvchilarni mustaqil tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik asoslari MDH mamlakatlari olimlaridan Yu.G.Chernisheva, L.A.Kolesnikova, M.X.Gatiyatullin, D.A.Mesheryakov, V.A.Malinin, N.Ya.Pavlyuk[16] va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Biroq o‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha ko‘pgina ilmiy-tadqiqot ishlari mavjudligiga qaramay hozirgi qadar professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida innovatsion yondashuvlar asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikalarini ishlab chiqishga oid yetarlicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Professional ta’limni rivojlantirish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z o‘zini bandligini ta’minlashga qaratilgan yagona elektron ma’lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish” (2021-2023 yy.) innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda tadbirkorlik kompetensiyalarini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishda integratsiyalashgan tadbirkorlik komponentlari mazmunini metodologik yondashuv va integrativ tamoyillar asosida takomillashtirish;

professional ta’limning xalqaro standart tasniflagich darajalariga mos keluvchi ta’lim dasturlarini to‘ldirish asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida shakllantirish usullari va vositalari orqali o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy-tuzilmaviy modelini ishlab chiqish;

professional ta’lim tizimida o‘quvchilarni innovatsion yondashuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan tarkibiy komponentlar

---

[15] Xudayberdiyev Z. Tadbirkorlik sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. –T.: 2002. –B.332; Xomitov K. O‘zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqt.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: O‘zR FA Iqtisodiyot instituti, 2012; Artikova M. Umumta’lim maktabi va oila hamkorligi asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ped.fan.doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Namangan, 2020. –B.278.

[16] Chernisheva Yu.G. Gosudarstvennaya podderjka malogo predprinimatelstva v kontekste ekonomicheskix protivorechiy: teoriya i praktika. Diss. dokt.ekon. nauk. –M.: 2009. -S. 327; Kolesnikova L.A. Formirovanie gosudarstvennoy sistemi razvitiya predprinimatelstva v perexodnoy ekonomike: Voprosi teorii, metodologii i praktiki. Dis. … dok. ekon. nauk. –M.: 2001 -S. 314; Gatiyatullin M.X. Pedagogicheskaya sistema podgotovki studentov texnicheskogo vuza k predprinimatelskoy deyatelnosti Dis. dokt. ped. nauk. – Kazan, 2009. – S. 467; Mesheryakov D.A. Kompetentnost sub’ektov predprinimatelskoy deyatelnosti. Dis. … dok. ekon. nauk. – Voronej, 1999. – 259 s.; Pavlyuk N.Ya. Sotsiologo-ekonomicheskie aspekti stanovleniya svobodnogo predprinimatelstva v sovremennoy Rossii. Dis. dokt.ekon. nauk. – M.: 2001. – 314 s.; Kolesnikova L.A. Formirovanie gosudarstvennoy sistemi razvitiya predprinimatelstva v perexodnoy ekonomike: Voprosi teorii, metodologii i praktiki. Dis. dokt.ekon. nauk. – M.: 2001. – 314 s.

iaerarxiyasini ishlab chiqish;

innovatsion ta’lim metodlari orqali professional ta’lim tizimida o‘quvchilarni innovatsion yondashuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasi hamda didaktik ta’minotini yaratish;

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanish asosida tadbirkorlik kompetensiyalarining shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlari, ko‘rsatkichlari va tayyorgarlik darajalariga tajriba-sinov natijalari orqali matematik-statistik ishlov berishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini innovatsion yondashuv asosida shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak mutaxassislarda innovatsion yondashuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Maqsadga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi: pedagogik-psixologik va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish hamda tahlil qilish, malaka talablari va o‘quv dasturlari, o‘quv-tarbiya faoliyatini kuzatish, taqqoslash, tashhis usullari, anketa, test-so‘rovnomalar o‘tkazish, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish, psixodiagnostika, natijalarga matematik-statistik ishlov berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning amaliyotga yo‘naltirilgan tuzilmasi komponentlar mazmuni pedagogik tamoyillar va innovatsion metodologik yondashuvlarni kiritish asosida integratsiyalashgan tadbirkorlik komponentlari mazmuni takomillashtirilgan;

professional ta’lim tizimi o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish usullari, vositalari (rolli o‘yinlar, start-up loyihalar, biznes sayohatlar, amaliy ish daftar, iqtisodiy masalalar to‘plami) va ilmiy pedagogik, metodik-texnik, axborot-dasturiy didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish orqali o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli mazmunan modernizatsiyalashtirilgan;

professional ta’lim tizimida o‘quvchilarni “Mobile-learning”, BOYD (Bring your own device – ta’limda mobil qurilmadan foydalanish) texnologiyalari orqali ta’limni raqamlashtirish tamoyillari asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan biznestadbir.uz elektron platformasi hamda uning multimedia resurslaridan iborat tashkiliy komponentlar mazmuni takomillashtirilgan;

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tayanch, metakompetensiya va maxsus tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan tarkibiy komponentlar iaerarxiyasini ishlab chiqish orqali innovatsion ta’lim metodlari va texnologiyalari (“Tadbirkorlik g‘ildiragi” “5 W”, blended learning, filipped class,

case study va iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish, mediata'lim, dasturlashtirilgan ta'lim va b.q.) integratsiyasini ta'minlash asosida o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasi hamda mobil-didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllanganligini baholashning didaktik hamda motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, refleksiya va kreativ mezonlari, kreativ, produktiv, reproduktiv darajalari va ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan mobil didaktik resurslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining "Professional ta'lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini tasdiqlash to‘g‘risida"gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat ta'lim standartining biznes va boshqaruv – 320 000 ta'lim sohasi bo‘yicha menejment, marketing, moliya, bank ishi, soliqlar va soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va audit, sug‘urta ishi, logistika, tijorat, kadrlar menejmenti yo‘nalishlari uchun malaka talablari, o‘quv reja va "Biznes asoslari", "Biznesni tashkil etish va yuritish" dasturlari ishlab chiqildi hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta'lim muassasalariga tadbiq qilindi;

"Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi" elektron darsligi (16984-raqamli guvohnoma), "Tadbirkorlik g‘ildiragi" metodi (004598-raqamli guvohnoma), biznestadbir.uz platformasi (00913-raqamli guvohnoma), "Yoshlarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish" amaliy ish daftari (14458-raqamli guvohnoma) va uning mobil ilovalari (15517-raqamli guvohnoma) professional ta'lim muassasalari jarayoniga joriy etildi;

"Professional ta'lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi" nomli monografiya, "Professional ta'lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish" (14436-raqamli guvohnoma), "Ta'lim menejmenti va marketingi" (1186-121-raqamli guvohnoma), "Kollejda biznes yuritish" (285-195-raqamli guvohnoma), "Ta'lim tizimida xalqaro tajribalar" (07814-raqamli guvohnoma), "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish", "Zamonaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish", "Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish" nomli o‘quv qo‘llanmalari, "Kasb-hunar ta'limi muassasalari o‘quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirib o‘qitish shart-sharoitlari", "Masofadan o‘qitishni tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asoslari" nomidagi uslubiy qo‘llanmalar, "O‘quvchilarda biznes-reja tuzish kompetensiyasini shakllantirish" va "Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish" modullari bo‘yicha o‘quv-uslubiy ta'minot, "Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish" nomli o‘quv kursining uslubiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xorijiy va OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, respublikamiz va halqaro miqiyosidagi ilmiy konferensiya materillari to‘plami, nashr etilgan monografiya, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari asosida

asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy tuzilmaviy modeli va uni joriy etish metodikasining ishlab chiqilganligi, nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi, tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta’minlovchi va o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish metodikasi va o‘quv-metodik ta’minot hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ta’limnig xalqaro standart tasniflagich darajalarini beradigan professional ta’lim muassasalariga didaktik tamoyillarga asoslangan ta’limni tashkil etish orqali o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, “Biznes asoslari” va “Biznesni tashkil etish va yuritish” kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish amalga oshirilgan o‘quv-didaktik ta’minotdan maqsadga muvofiq holda unumli foydalanish bilan belgilanadi va o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion yondashuv asosida professional talim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda integratsiyalashgan tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning amaliyotga yo‘naltirilgan tuzilmasi komponentlari mazmuni pedagogik tamoyillar, innovatsion metodologik yondashuvlarni takomillshatirishga doir takliflari “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” nomli elektron darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 6 dekabrdagi 89-05-179-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur takliflar professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilgan;

professional ta’lim tizimida o‘quvchilarni “Mobile-learning”, BOYD (Bring your own device – ta’limda mobil qurilmadan foydalanish) texnologiyalari orqali ta’limni raqamlashtirish tamoyillari asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan biznestadbir.uz elektron platformasidan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalardan “Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z o‘zini bandligini ta’minlashga qaratilgan yagona elektron ma’lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish” nomli innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 6 dekabrdagi 89-05-179-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan platformaning multimedia resurslaridan iborat tashkiliy komponentlari ishlab chiqilgan;

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tayanch, metakompetensiya va maxsus tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan tarkibiy komponentlar iaerarxiyasini ishlab chiqish orqali innovatsion ta’lim metodlari (“Tadbirkorlik g‘ildiragi”, “5 W”, blended learning, filipped class, case study va iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish, mediata’lim, dasturlashtirilgan ta’lim va b.q.)

integratsiyasini ta’minlash asosida o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasi “Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z o‘zini bandligini ta’minlashga qaratilgan yagona elektron ma’lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish” nomli innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 6 dekabrdagi 89-05-179-sonli ma’lumotnomasi). Natijada innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan o‘quv jarayonini tashkil etishning metodik va didaktik ta’minoti takomillshatirilgan;

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllanganligini baholashning didaktik hamda motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, refleksiya va kreativ mezonlari, kreativ, produktiv, reproduktiv darajalari va ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan takliflar “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” nomli elektron darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 6 dekabrdagi 89-05-179-sonli ma’lumotnomasi). Natijada professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllanganlik darajalarini baholash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 6 ta xalqaro va 20 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 46 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta elektron darslik, 7 ta o‘quv va uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta xorijiy va 12 ta respublika miqiyosidagi jurnallarda chop etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat intellektual mulk agentligidan 6 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rt bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 223 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti hamda predmeti shakllantirilgan, tadqiqot usullari hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari”**, deb nomlangan birinchi bobida professional ta’lim

muassasalarida o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash pedagogik muammo sifatida, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash tizimiga qo‘yiladigan talablar, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion metodologik yondashuvlar yoritilgan.

Hozirgi kunda islohotlar natijasida ishlab chiqarishning rivojlanishi va sanoatda “Industria 4.0” strategiyasining ta’lim tizimiga joriy etilishi, jamiyatning raqamli iqtisodiyotga o‘tishi va ta’lim tizimini raqamlashtirish, kelajak ta’lim muassasalari va ta’limda innovatsion muhitni yaratish, Worldskills International harakatiga O‘zbekistonning qo‘shilishi o‘rta kasbiy ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislarga ehtiyojning ortib borishi bilan belgilanmoqda.

Mamalakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida inson kapitalining o‘sib borayotgan rolini oshirish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash uchun ta’lim tizimiga, ayniqsa, professional ta’lim tizimiga yuklatilgan rejalarni hisobga olib, iqtisodiyotning turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash tizimini, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik faoliyati yoshlarning faol imkoniyatlarini namoyon qiladigan soha bo‘libgina qolmay, ish o‘rinlarini ham yaratishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimiz aholisini tadbirkorlikka o‘rgatish, kasbiy malakasini oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirish eng asosiy masala hisoblanadi. Kambag‘allik darajasidan o‘rta sinf darajasiga ko’tarish uchun kambag‘al va ishsiz shaxslarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, shu asosda ular uchun doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish o‘ta muhimdir.

Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning 70 foizga yaqini aynan professional ta’lim tizimiga to‘g‘ri keladi. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda tadbirkorlik faoliyati uchun bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash borgan sari tizimli xususiyatga ega bo‘lib bormoqda. O‘quvchilar tadbirkorlik kompetensiyalarini aynan professional ta’lim muassasalarida egallaydi. Shuning uchun bitiruvchilarni tadbirkorlik faoliyatining asoslari bilan faol tanishtirish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishni psixologik-pedagogik asoslanishida tadbirkorlik ta’lim mazmuni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va kambag‘allikni tadbirkorlik asosida bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi hamda ularni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning turli yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishlarining oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, professional ta’lim muassasasi o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish orqali tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish uchun eng qulay yosh davr hisoblanadi. Sababi mazkur yoshda ular turmushda o‘z o‘rnini topishi, o‘zi tanlagan kasbni mutaxassisi bo‘lishi uchun ularni jamiyat hayotida munosib o‘rin egallashlariga

yaqindan ko‘maklashish, rivojlangan bozor munosabatlari va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirok etishga tayyor yigit-qizlarni tarbiyalash, ularga yetarli e’tibor va shart-sharoitlar yaratib berish, tadbirkorlik faoliyatiga doir iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirishga ko‘maklashish zarur.

Tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda biz ta’kidlashimiz mumkinki, faqat tadbirkorlik kompetensiyalarning asosi bo‘lib sanaladigan tadbirkorlik fikrlashni shakllantirishga imkon beruvchi o‘quv-bilish faoliyati va tadbirkorlik nazariyasining uyg‘unlashtirilishi, shuningdek, tadbirkorlik savodxonligi shakllanganligining amaliy yo‘naltirilganligi bitiruvchilarga yanada samaraliroq kasbiy ijtimoiylashuv imkoniyatini beradi.

Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni qo‘llashdan asosiy maqsad o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashni maqsadli shakllantirish, o‘quv va tadqiqot faoliyati uchun tajriba va vositalar, rolli o‘yinlar va modellashtirish asosida ularning yangi tajribalarni o‘rganish imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Innovatsion yondashuv asosidagi ta’lim jarayonlari o‘quvchining biron-bir sifatini shakllantirishga emas, balki har bir o‘quvchining tabiiy individualligini, uning ijodiy qobiliyatlarini, umumiy ta’limini, kasbiy o‘zini o‘zi belgilashini va yangi turmush sharoitlariga ijtimoiy moslashishini rivojlantirishga qaratilgan. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishda ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish quyidagi o‘ziga xos innovatsion metodologik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi:

- tizimli yondashuv – texnik o‘quv fanlarini o‘qitish texnologiyasining ayrim komponentlarini tuzishda tashqi yaxlitligi va ichki o‘zaro aloqadorligi, ilmiy bilimlardan kasbiy bilimlarga va undan amaliy ko‘nikmalarga hamda undan kasbiy kompetensiyalarga bosqichma-bosqich o‘tish;

- integrativ-modulli yondashuv – o‘quv fani ichidagi va fanlararo xususiyatdagi ta’lim mazmuni komponentlarini birlashtirish hamda didaktik sintezlash asosida maxsus o‘quv fanlarining mazmuni tuzilmasini asoslash, ularni qonunlar, tushunchalar, asosiy qoidalar darajasida umumlashtirish, bilim, harakatlarning yaxlit tizimini shakllantirishni ta’minlaydi, bu esa texnik ishlab chiqarish (yoki xizmatlar)ning yaxlitligini, o‘quvchilarning kasbiy o‘sishlari va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi. Kasb ta’limi mazmunini integratsiyalash professional ta’lim tizimi o‘quvchilarini dasturiy-nazariy, tuzilmaviy va funksional integratsiyalash asosida majmuaviy ob’ekt sifatida kasb fanlarini o‘qitishning texnologiyasi modelini tuzish imkoniyatini beradi;

- kasbiy-texnologik yondashuv – kasbga o‘qitish texnologiyasi tuzilmasini yaratish, o‘quv-ishlab chiqarish muammoli vaziyatlari tizimini, o‘qitishning har bir darajasida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni tizimlashtirilishini va o‘qituvchi hamda o‘quvchining faoliyatlari yaxlitligini, texnika yo‘nalishdagi mutaxassis faoliyati tizimini egallashni ta’minlaydi;

- kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv fanlari mazmunidagi kompetensiyalarni aniqlashda

qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish uchun eng muhim bo‘lgan va o‘quvchining o‘z hayotida talab qilinadigan bilim va ko‘nikmalarni tanlash bo‘yicha ko‘rsatmalarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Kompetentlikka asoslangan yondashuv maqsadli ko‘rsatmalarni o‘zgartiradi, ya’ni bilimdon o‘quvchidan intellektual o‘quvchiga, ta’lim olgan o‘quvchidan amalda bajara oladigan kompetentli o‘quvchiga aylanadi.


Innovatsion metodologik yondashuvlarning nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi o‘quv faoliyatining mazmuni tadbirkorlik faoliyat mantig‘i asosida shakllanadi, ya’ni o‘quvchining o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari uning kelajakdagi tadbirkorlik faoliyati shakllariga mos kelishi kerak. Shu sababli, ta’lim faoliyati shakllari orasida kasbiy faoliyat va ta’lim hamda kasbiy faoliyatning ajralmas qismlari (ishlab chiqarish amaliyoti, kurs va o‘quv loyihalarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot va biznes loyiha ishlari va boshqalar)ni modellashtirishga imkon beradigan professionalga ustunlik berish kerak.

Innovatsion metodologik yondashuvlar asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi pedagogik-psixologik tushunchalar asos bo‘lib xizmat qiladi: qiziqishni rivojlantirish, idrok etish talabini faollashtirish, idrok etish faoliyatidagi talab, innovatsion va mustaqil bilim olish ishlarida zarur kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil tadbirkorlik tajribalarini egallash; ta’limning zamonaviy usullarini qo‘llash, ularni faollashtirish, mustaqil egallagan kompetensiyalarini ijtimoiylashtirish, kasbiy-innovatsion tadbirkorlik faoliyatida erishgan natijalarini tahlil qilish.

Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida an’anaviy va innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta’limni didaktik tashkil etuvchi komponetlarining qiyosiy tahlili keltirib o‘tilgan (1-rasm).

Tadqiqot jarayonida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonining funksional xususiyatlari aniqlandi va ular tizimli, integrativ-modulli, kasbiy-texnologik, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida qurilgan bo‘lib, bular o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlash va avtotransport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Professional ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion metodologik yondashuvlar asosida qurish, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy faollikka yo‘naltirishda qiziqarli, faol, noan’anaviy, yangi innovatsion usullardan foydalangan holda ularga kasbiy va tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirgi davrda ilm-fanning jadal taraqqiy etishi, zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlarining keng joriy etilishi, turli fan sohalarida ma’lumotlarning tez yangilanishi, texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi o‘quvchilarning daromad topib, o‘zini o‘zi bandligini ta’minlashda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.



1-rasm. Ta’lim jarayonida an’anaviy va innovatsion yondoshuvlarning qiyosiy tahlili

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, innovatsiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan harakatlar natijalarni olishga ishonish, innovatsion faoliyatning maqsadlariga muvofiqligi asosida "nou-xau"larni kiritish, professional ta’limi muassasalari o‘quvchilarini tadbirkorlik faoliyatga tayyorlash o‘quvchilarni innovatsiyalarni idrok etishga, o‘quvchilar tomonidan innovatsion faoliyatga yo‘naltirilganligi va bu yangiliklarni amaliyotga joriy qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’limga innovatsion metodologik yondashuvlarni qo‘llash faqatgina ma’lumotlar va ko‘nikmalarning yig‘indisini egallashdan iborat bo‘lgan ta’lim natijalariga emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatga, turli xil muammolarni mustaqil ravishda yecha olishga qodirligi va tayyorligiga yo‘naltirilgan ta’lim natijalarining yangi turlarini yuzaga keltiradi.

Profesissional ta’lim muassasasi o‘quvchisining tadbirkorlik kompetensiyasi borasida mualliflik ta’rifiga izoh berildi, tadbirkorlik bu o‘quvchi kasbiy faolligining o‘ziga xos shakli bo‘lib, bo‘lajak tadbirkor o‘z imkoniyatlaridan ijodiy foydalanishi orqali o‘zining kasbiy ahamiyatiga ega sifatlari asosida o‘z biznesi tashkil etish hamda u bilan bog‘liq vazifalarni yetarli darajada muvaffaqiyatli (samarali) va mustaqil amalga oshirishi hamda uddasidan chiqishi sifatida ta’riflanadi. Tadbirkorlik kompetensiyasi deganda biz professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligini bir bosqichdan ikkinchi sifat bosqichiga o‘tishini tushunamiz.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari va o‘quv didaktik ta’minoti tadqiq etilgan.


Innovatsion metodologik yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish muayyan tartibda didaktik shart-sharoitlar mavjudligini taqozo etadi. Mavzuga doir adabiyotlarni o‘rganish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini kuzatish natijasida quyidagi didaktik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega ekanligi belgilab olindi: o‘quv-me’yoriy ta’minot – tadbirkorlik va biznes asoslari uchun ajratilgan o‘quv soatlari, malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlari (ishchi va namunaviy) hamda barcha o‘quv-me’yoriy hujjatlar; ilmiy pedagogik salohiyatga ega kadrlar ta’minoti – o‘z sohasini chuqur biladigan o‘qituvchi-pedagoglar, biznes-trenerlar, tadbirkorlar va boshqalar; metodik-texnik ta’minot – didaktik vositalar majmuasi (ma’ruza matnlari, taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, amaliy ish daftari va ish qog‘ozlari, o‘quv topshiriqlar, amaliy ko‘rsatmalar, nazorat-sinov savollari, krossvord va boshqalar); axborot-dasturiy ta’minot – ta’lim jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar (internet tarmog‘iga ulangan zamonaviy kompyuterlar), biznestadbir.uz modulli platformasi, ZOOM drayverlari, elektron

darslik va mobil ilovalar, o‘quv qo‘llanma va o‘quv-uslubiy majmualar dasturlari, videomateriallar va boshqalar; ijtimoiy ta’minot – “Start-up” loyihalari, “Bo‘lajak tadbirkorlar” biznes to‘garagi, yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash markazi va tadbirkorlik asoslariga o‘qitishni tashkil etish markazlari bilan hamkorlik, biznes-sayohatlar va biznes uchrashuvlar, networking va boshqalar.

Tadqiqot ishimizdagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish, bizning fikrimizcha, ta’lim jarayonining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi, natijaga erishishni pedagogik maqsad deb hisoblash mumkin. Maqsad va natijalarning nisbati ta’lim sifatini belgilaydi. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari va mazmunini yangilash yo‘llarini izlab topish hamda sifatini tahlil qilish orqali belgilangan maqsad va vazifalarning hal qilinishiga, kasbiy kompetentli mutaxassis ko‘rinishida yangi natijani olib chiqish mumkin.

Tahlillar natijasiga ko‘ra, innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlar: motivatsion komponent – o‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritishga ehtiyojlari, maqsadlari va faoliyat mazmuni hamda natijasi haqidagi tasavvurlarini anglashni o‘z ichiga oladi; intellektual komponent – o‘quvchining tadbirkorlik faoliyatiga oid bilimlar majmui va darajasi hamda u bilan mos holdagi aloqalari va imkoniyatlari, tadbirkorlik haqidagi bilish faoliyatining vositalari, shakllari va natijalarini bilishini ta’minlaydi; amaliy-faoliyatli komponent – bilish vazifalarini tahlil qilish, umumiy va xususiy-sub’ekt bilish faoliyati usullarini, umumiy ta’lim ko‘nikmalarini mustaqil hal etishga tayyorgarlik; o‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatini maqsadga muvofiq belgilash, rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish; refleksiya komponenti – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va yuritishda o‘z-o‘zini baholashni o‘z ichiga oladi, ya’ni tadqiqot ko‘nikmalaridan foydalanish bilan bog‘liq vazifalarini mustaqil hal qilishga tayyorligini ifodalaydi; kreativ komponent – o‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatida va nostandart vaziyatlarda harakat usullariga egaligi va ularni tahlil qilish, muammolarni yechishning turli usullarini qo‘llay olishi asosida shakllanadi.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasi shakllantirishda quyidagi tizim sifatida kompetensiyalarning o‘zaro integratsiyalashgan iaerxiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirildi: tayanch kompetensiyalar (shaxsiy-madaniy kompetentlik, iqtisodiy kompetentlik, innovatsion kompetentlik, tashkiliy kompetentlik, kommunikativ kompetentlilik tijorat kompetentligi, reklama-axborot kompetentligi, boshqaruv kompetentliligi), metakompetensiyalar (iqtisodiy, menejment, huquq, marketing, soliq va soliq tartibi, shaxsiy madaniy, bank va kredit tizimi) va maxsus kompetensiyalar (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, revleksiya, kreativ). Mazkur integratsiyalashgan kompetensiyalarni shakllantirish iaerxiyasida ta’lim jarayoni, raqamli-axborot va ijtimoiy muhitlar tizimini yaratish orqali o‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyatining xizmat ko‘rsatish yoki ishlab chiqarish turlaridan birini tanlagan holda o‘z tadbirkorlik faoliyatini yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar (2-rasm).




2-rasm. Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalari mazmunining tarkibiy komponentlar iyerarxiyasi.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalar mazmuni va tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish asosida o‘quv dasturlari natijasida o‘quvchilar ega bo‘lishi lozim bo‘lgan tadbirkorlik kompetensiyalar shakllantirildi.

Innovatsion yondashuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarining shakllanishi o‘z ichiga faoliyatning tadbirkorlik turlariga asosli yondashuvlar, maqsadlar, natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan bilimlar majmuini, amaliy ko‘nikmalarni olib, ularni amalga oshirishda tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini o‘rgatish lozim.

Tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri, innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga yo’naltirilgan tashkiliy-tuzilmaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish modelining metodologik asosi bo‘lib esa quyidagi ilmiy-nazariy qarashlar va tamoyillar hisoblanadi:



3-rasm. Innovatsion yondashuv asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy tuzilmaviy modeli.

-kasbiy o‘qitishning uzluksizlik va ko‘p bo‘g‘inlilik, ijtimoiylashtirish va texnologiyalashtirish, ilmiylik va ijodkorlik tamoyillariga yo‘naltirilishi;

-o‘quvchilarni kasbiy o‘qitish jarayonining faol ijodiy faoliyatga qobiliyati bo‘lgan, o‘zini yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy faoliyat sub’ekti sifatida anglaydigan bo‘lajak mutaxassis kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilishi;

-nazariy, amaliy, ishlab chiqarish va tadbirkorlik tayyorgarligining ichki bir butunligi va tashqi yaxlitligi hamda o‘zaro aloqadorligi.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan tashkiliy-tuzilmaviy modeli quyidagi komponentlardan iborat bo‘lib: maqsadli (professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish maqsadi va uning ijtimoiy buyurtmasi), ta’lim mazmuni va pedagogik jarayonli (tadbirkorlik kompetensiyasi komponentlari, tamoyillar, yondashuvlar, bosqichlar, tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida foydalaniladigan metodlar, didaktik shart-sharoitlar, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun tadbirkorlikka tayyorlaydigan malaka talablar mazmuni, ta’lim shakllar, didaktik vositalar, baholash, ya’ni professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarining shakllanganligini baholash mezonlari va darajalari) hamda natijaviy komponentlar. Ularning har biri yaxlit bir element bo‘lib qolishi bilan birga, mazmuniy va funksional jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega (3-rasm).

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan tashkiliy-tuzilmaviy modelini yaratish va undan o‘quvchi shaxsini rivojlantirish strategiyasi sifatida foydalanish ikkita tadqiqotchilik masalasi – tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishda mazmunga oid va texnologik jarayonli muammolar yechimini topishga qaratiladi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi”** deb nomlanib, unda professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalari mazmuni va tarkibiy tuzilmasi, auditoriya mashg‘ulotlarida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarini tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion ta’lim texnologiyalari, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil tayyorgarlikning o‘rni va roli yoritib berilgan.

Bugungi kunda professional ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlash maqsadida ta’lim jarayonlariga bo‘lajak mutaxassislar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita real hayotda qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan milliy malaka ramkasi va malaka talablari hamda tabaqalashtirilgan o‘quv reja va ta’lim dasturlari yaratish hamda o‘quv jarayonlariga qo‘llash zaruriyati yuzaga keldi. Shu maqsadda biz tomondan professional ta’lim tizimi o‘quvchilari uchun tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha malaka talablari asosida o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini

shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv reja va o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, kasb-hunar maktablari uchun, kasb-hunar maktablarining xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlari uchun “Biznes asoslari”, barcha kollej va texnikumlar uchun “Biznesni tashkil etish va yuritish” nomli kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv dasturlari, “Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish” qisqa muddatli o‘quv kurs dasturi ishlab chiqildi. Mazkur talablar asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari orqali yuqori malakali, kompetentli tadbirkorlarni tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirishga erishish, ya’ni fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash orqali bo‘lajak mutaxassislarning tadbirkorlik kompetensiyasi shakllantirildi. Dasturlarni ishlab chiqishda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshirildi:

I-bosqich (motivatsiya) – o‘quvchining tadbirkorlik faoliyati mazmunini va uning maqsadlarini anglashi;

II-bosqich (dolzarblashtirish) – o‘quvchilarda inson hayotining iqtisodiy sohasidagi zaruriy tajribasini aniqlash;

III - bosqich (o‘zlashtirish) – jamiyat hayotining iqtisodiy sohasidagi tadbirkorlik faoliyati masalalari bo‘yicha nazariy va amaliy o‘quv-axborot bloki;

IV - bosqich (tahlil qilish va baholash) – olingan natijalarni tahlil qilish va ularni kutilgan natijalar bilan bog‘lash.

Shuningdek, biz tadqiqot davomida o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishni, avvalo, o‘qituvchilar hamkorligida amalga oshirildi. Tadbirkorlik fani bo‘yicha o‘qituvchilarni malakasini oshirish kurslarining o‘quv reja, o‘quv dasturlari hamda o‘quv uslubiy majmualar to‘plami ishlab chiqilib, malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Demak, har bir fan bo‘yicha takomillashtirilgan dasturlarni amalda tatbiq etish orqali ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, bunda umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining integratsiyasi va uyg‘unligini ta’minlash va natijada innovatsion yondashuvlar asosidagi ta’limni tashkil etish orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirishga erishish mumkinligi aniqlandi.

Innovatsion yondashuv asosida o‘quv jarayonining maqsadi – kelajakka yo‘naltirilgan, yangiliklarni real hayotda qo‘llay oladigan, olingan o‘quv tajribasi va muayyan vaziyatni adekvat baholash asosida muammolar va vazifalarni hal qilishga qodir bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Buning uchun innovatsion yondashuv asosida bilimlarni o‘zlashtirishning faol usullaridan foydalanishni, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uzluksiz ta’limdan individuallashtirilgan tayyorgarlikka o‘tishni nazarda tutadi. Mustaqil ishning rolini kuchaytirish o‘quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko‘rib chiqishni anglatib, u o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradigan, o‘quvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish, olingan bilimlarini aktuallashtirish va ijodiy qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga qaratilishi lozimligi aniqlandi.

Ta’limning interfaol metodikalaridan adekvat foydalanish, o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini yaratish, prinsipial jihatdan yangi didaktik vositalardan foydalanish, fan-texnika taraqqiyotini yangi ta’lim texnologiyalarini

joriy etish ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlash va uni yuritish imkonsiz chegaralarni yengib o‘tish va jarayonni to‘g‘ri tahlil qilish, idrok qilish, shundan so’ng boshlash juda muhimdir. Ushbu faoliyat natijalari nafaqat o‘quvchilarning yuqori iqtisodiy foyda olishiga bevosita ta’sir qilishi, balki kelajakdagi kasbni tanlashga ham ijobiy ta’sir qilishi aniqlandi.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish ta’lim texnologiyalarni takomillashtirish, samarali imkoniyatlarini aniqlash va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali ta’minlanishi belgilangan. Shunga ko‘ra, innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish imkoniyatini ta’minlovchi quyidagi innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish nazariy jihatdan asoslandi va tajriba-sinov asosida amaliyotga joriy etildi:

“Blended Learning” texnologiyasi “Aralash o‘qitish” – zamonaviy ta’lim texnologisi bo‘lib, uning asosi "sinf-dars tizimi" bilan elektron ta’limning birlashuv konsepsiyasidan iborat. Bu elektron ta’lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy o‘quv vositalari taqdim qiladigan yangi didaktik imkoniyatlarga asoslanadi.

"Flipped Class" texnologiyasi asosida o‘qitish bilim olish paradigmasini o‘zgartiradi. Agar an’anaviy ta’limda bilimlar tayyor, mantiqiy tuzilgan shaklda berilsa, "Flipped Class" usulida o‘quvchidan uni mustaqil topish, tushunish, qayta ishlashda faol ishtirok etishini talab qiladi. Bu o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni uyg‘otishga, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undashga, mavzu bo‘yicha bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. "Flipped Class" texnologiyasida o‘quvchilar mustaqil ishlash jarayonida bajargan vazifa yoki muammoli vaziyat bo‘yicha ma’lumotlarni qidirish va tahlil qilish, yechimlarni taklif etishga harakat qiladi. O‘quvchilar topilgan ma’lumotlarni o‘qituvchining rahbarligida tahlil qiladilar va unda taklif qilingan har bir yechimning afzalliklari va kamchiliklarini taqqoslaydilar. Shundan so‘ng, mustaqil ishlash bosqichi yana davom etadi va o‘quvchilar muammoning nazariy asoslarini va uni hal qilish bo‘yicha tajribalarni o‘rganadilar. Yakunida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha o‘rganilgan barcha materiallarni umumlashtiradi va birlashtiradi hamda amaliyotda qo‘llanilishini tahlil qiladi.

BOYD – “Bring your own device” texnologiyalar asosida o‘qitish va bilim olish ta’lim paradigmasini o‘zgartiradi. Agar an’anaviy ta’limda bilimlar tayyor, mantiqiy tuzilgan shaklda berilsa, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan texnologiyalarda o‘quvchidan tadbirkorlik faoliyatiga oid topshiriqlarni mustaqil bajarish, aniqlash, topish, tushunish, tahlil qilish va qayta ishlashda faol ishtirok etishini talab qiladi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishni uyg‘otishga, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undashga, tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha bilim doirasini kengaytirishga, natijada tadbirkorlik kompetensiyasi shakllanishiga xizmat qiladi.

BOYD – Bring your own device mobil qurilmalardan o‘quv jarayonida foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini berishi aniqlandi: mobillik –

o‘quv jarayoni ishtirokchilari istalgan vaqtda qo‘shimcha qurilmalardan foydalanmasdan ishlashlari uchun tadbirkorlik faoliyatiga oid ma’lumotlarni olishlari mumkin. Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar mobil qurilmalardan foydalangan holda topshiriqlarni bajarish uchun kerakli ma’lumotlarni osongina topishlari va internetdan foydalanish imkoniyatiga ega; ta’limning uzluksizligi – mobil ta’lim uzluksiz, chunki o‘quvchilar mobil qurilmalariadan ajralmaydilar, ular hamma joyda uyali aloqalar bilan birga bo’ladilar va bu ularga mobil ilovalardan foydalanish imkonini beradi. Uzluksizlik o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatini va qiziqishini oshirish, istalgan vaqtda va istalgan joyda topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Bu passiv ta’limni aktiv ta’limga va mustaqil bajarish hamda o‘zlashtirishga yordam beradi; o‘rganishni individuallashtirish – mobil qurilmalar vazifalarning darajasini, shuningdek, o‘rganish ritmini tanlash imkoniyatini beradi.

Mobil qurilma yordamida materiallarni har bir o‘quvchiga qulayroq tarzda taqdim etish mumkin. Bu shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalarni yaratuvchilar yuqori samaradorlik uchun bir xil ma’lumotlarni, lekin turli shakllarda: matn, video, tasvir va grafiklar, amaliy topshiriqlar to‘plami, jadvallar orqali taqdim etishi mumkin. Bunday mobil ilovalar o‘quvchilarga materialni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlarni bajarish orqali ishni mustaqil baholash va muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradi; aloqa sifatini oshirish – mobil ta’limdan foydalanish bilan ta’lim muassasasi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida tezda aloqa o‘rnatiladi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining tarkibiy qismlaridan biri o‘quvchilarga uzatiladigan zamonaviy kontent bo‘lib, u nafaqat tadbirkorlik bilimlarini rivojlantirish, balki davlat ta’lim standartlarining zamonaviy talablariga javob beradigan tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu mobil ilova vositasida o‘z tadbirkorlik faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etish, rejalashtirish va baholash, ularni to‘g‘rilash, kutilgan yakuniy natijaga e’tibor berish, mustaqil biznes-rejalar tuzish, o‘quvchilar ongli tanlovlar qilish orqali o‘zlari uchun qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Ularda axborot makonida ishlash, axborotni izlash va tahlil qilish, turli zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda natijalarni taqdim etish kompetensiyalari shakllanadi.

Mobil ilova – bu uyali aloqaga o‘rnatilgan dastur bo‘lib, u ko‘p funksionallikka ega va har xil turdagi harakatlarni bajarishga imkon beradi. Biz tomondan o‘quvchilarni tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishni mustaqil o‘quv bilishi uchun tadbirkorlik faoliyatiga oid mashqlar to‘plamidan iborat amaliy ish daftarining mobil ilovasi ishlab chiqildi. Bu amaliy ish daftarining mobil varianti bo‘lib, topshiriqlar to‘plami, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va keyslar, krossvordlar hamda testlar to‘plamlaridan iborat mobil dasturdir. Ushbu dasturdan foydalanish qulay bo‘lib, u yo‘riqnoma asosida topshiriqlarni bajarish, ko‘rsatmalar asosida jadvallarni to‘ldirish, testlarni belgilash va javoblarni ko‘rishi hamda rasm orqali topshiriqlarni bajarish imkonini beradi. Mobil ilovaning yana bir afzalligi shundaki, o‘quvchilar bilimini baholashda o‘qituvchilar vaqtini tejaydi va o‘quvchilar o‘zlashtirish natijasini tezda ko‘radilar. Mobil ilovada fanlar tizimi modul asosida berilgan bo‘lib, u 8 ta modul, ilovalar, videoroliklar va foydalanilgan

adabiyotlardan iborat. Har bir modul doirasida 6 tadan 10 tagacha topshiriqlar taqdim etilgan. Shuningdek, ilovalar bo‘limida esa o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarishi, hayotda maqsad sari intilishi, xodimlarni to‘g‘ri tanlay olishi, o‘zining real daromadlariga ega bo‘lishga o‘rgatuvchi videoroliklar taqdim etilgan. O‘quv jarayonida mobil qurilmalaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchilarga onlayn ilovalarni taqdim etish erkinligini his qilish imkoniyatini beradi.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasasining avtotransport yo‘nalishi o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda turli xil metodlarni ishlab chiqish va qo‘llash orqali ham yuqori samaradorlikka erishildi hamda auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv mashg‘ulotlariga joriy etish metodikasi asoslangan.

“Tadbirkorlik g‘ildiragi” metodi tadbirkor imidjini birlamchi tushunishni va tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan. “Tadbirkorlik g‘ildiragi” metodi o‘quv mashg‘uloti davomida o‘quvchilardan zamonaviy tadbirkorning xususiyatlarini sanab o‘tish va tanlangan fazilatlarni g‘ildirakka kiritish so‘raladi. Shu bilan birga, har bir sifat o‘z-o‘zidan prognoz qilinishi va g‘ildirakdagi foiz sifatida belgilanishi kerak (0%, 50%, 100%).

5 “W” metod – What (nima), Who (kim), When (Qachon), Where (qaerda), Why (nima uchun) so‘zlarining birikmasida tarkib topib, o‘qitishning samarali metodi hisoblanadi, mazkur metod orqali o‘quvchilarning bozorga kirib borishi jarayonida duch keladigan bir qator muammolar va ularni hal qilish, tadbirkorlik faoliyatining turlari va tashkiliy shakllarini tanlash imkonini beradi. Bu metoddan vaziyatni oydinlashtirish yoki aniq masad sari harakat qilishda foydalanish va maqsadli auditoriyani aniqlash, mijozlarni segmentlash va iste’molchi portretlarini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.

Turli texnologiya va metodlardan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish amaliyoti o‘quvchilar o‘rtasida tayanch, metakompetensiya va maxsus kompetensiyalarni shakllantirishda, o‘quv jarayonini takomillashtirish va faollashtirishda, o‘quvchilar o‘rtasida intellektual va amaliy harakatlarni amalga oshirishda ijobiy motivatsiya uyg‘otishda, an’anaviy o‘qitish usuli bo‘yicha bilim faolligini rag‘batlantirishda o‘z afzalliklarini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning to’rtinchi bobi “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarining sifat va samaradorligi”** deb nomlanib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi, professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllanganligini baholash mezonlari va darajalari, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining miqdor va sifat tahlillari keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlari 2018-2022 o‘quv yillari mobaynida amalga oshirilib, unda 917 nafar respondentlar ishtirok etdi. Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish orqali aniqlanadi. Tajriba-sinov ishlari Chilonzor tuman 1-son kasb-hunar maktabi, Toshkent avtomobil va yo‘llar texnikumi, Vobkent sanoat va transport texnikumi, Qo‘qon avtomobil va yo‘llar texnikumi, Olmaliq kon metalurgiya kolleji, Vobkent, Peshko‘, Dang‘ara va Zangiota tuman 2-son kasb-hunar maktablari, Qo‘qon shahar kasb-hunar maktablarining “Avtomobillarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish”,

“Avtomobillarni ta’mirlash chilangari”, “Avtomobil elektr jihozlariga xizmat ko‘rsatish chilangari” yo‘nalishlari o‘quvchilarida uch bosqichda olib borildi:

Asoslovchi tajriba bosqichida – “Avtomobillarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish”, “Avtomobillarni ta’mirlash chilangari”, “Avtomobil elektro jihozlariga xizmat ko‘rsatish chilangari” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ularda tadbirkorlik kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etildi.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichida – biz tomondan tavsiya etilgan ko‘rsatma, yo‘riqnoma, metodik ishlanmalar, texnologiyalar, amaliy ish daftar va muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish shakllari asosida amaliy-metodik faoliyat tashkil etildi. O‘quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida amaliy treninglarni tashkil etish, suhbat, anketa so‘rovi kabi metodlar yordamida o‘quvchilarni o‘z biznes g‘oyalarini ishlab chiqishga hamda mustaqil tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish asosida kasbiy kompetensiyalarining shakllanishiga katta ahamiyat qaratildi.

Ta’kidlovchi tajriba bosqichida “Avtomobillarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish”, “Avtomobillarni ta’mirlash chilangari”, “Avtomobil elektr jihozlariga xizmat ko‘rsatish chilangari” yo‘nalishlari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy ta’limni birgalikda qo‘shib olib borish metodikasi va bo‘lajak mutaxassislarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish sifatini baholash mezonlari va shakllantirilganlik darajasining ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish mohiyatini o‘rganish, uning tuzilishi, mezonlari va rivojlanish darajalarini aniqlash va ilmiy tadqiqotlarning tahlilini hisobga olgan holda uning yetakchi komponentlari: motivatsion, intellektual, amaliy- faoliyatli, refleksiya va kreativ ochib berildi.

Motivatsion mezon – motivatsiyani anglatadi, biz tomonimizdan tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va yuritish uchun barqaror motivlar majmui sifatida tushuniladi, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining o‘z ta’lim ehtiyojlarini aniq anglashni, maqsad va qiymatni aniq tushunishni o‘z ichiga oladi; o‘quvchilar o‘zlarining ta’lim ehtiyojlarini anglashi; tadbirkorlik faoliyatining mazmuni va natijasiga qarab maqsadlar va yangi g‘oyalarni aniq anglashi; tadbirkorlik faoliyatida faol ishtirok etishga, yangi qo‘shimcha qiymat topishni o‘rganishga e’tibor qaratishi; tadbirkorlik kompetensiyasini namoyon etishning ijobiy motivatsiyasi hisoblanadi.

Intellektual mezon – bilim olish usullari haqida fikrlar; yangi texnika va texnologiyalarni tahlil qilish va sintezlash, ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashning samarali yo‘llari haqida bilish.

Amaliy-faoliyatli mezon – tadbirkorlik faoliyatini munosib baholash qobiliyatini anglatadi; qo‘yilgan muammo va vazifalarni mustaqil aniqlash va hal etish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatga o‘tkazish, tadbirkorlik faoliyatining asosiy bosqichlarini amalga oshirish ko‘nikmasiga ega

bo‘lish.

Refleksiya mezoni – o‘zini o‘zi baholash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda o‘z harakatlarini baholash va tahlil qilish, tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha tajribalarini tahlil qila olish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi boshqarish va baholash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda o‘zining doimiy rivojlanish strategiyalariga ega bo‘lish ko‘rsatkichlari.

Kreativ mezon – o‘quvchilarning samarali tadbirkorlik faoliyatni amalga oshirish qobiliyatlari, nostandart vaziyatlardagi harakat usullari; tadbirkorlik faoliyatining vazifalarini hal qilish qobiliyatlari; tadbirkorlik faoliyati davomidagi tajribalarini tahlil qila olish va muammolarni hal qilishning evristik usullarini bilish; tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish ko‘rsatkichlari.

Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarni baholash uchun va diagnostika qilish uchun intervalli shkala ishlab chiqilishi kerak, bu aniqlovchi indikatorlarning umumiy qiymatidan kelib chiqqan holda kompetensiyalarning shakllanish darajasini aniqlash vositasidir.

Baholash tizimi professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining ehtiyojlarini qondirishi kerak va u o‘quvchining o‘quv faoliyati natijalarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Baholash mezonlari o‘quvchini eng samarali tayyorgarligida nimalarni o‘rganganligi va nimalarni takomillashtirish kerakligi haqida xabardor qiladi. Baholash yordamida o‘quvchining tadbirkorlik va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida o‘z o‘quv natijalarini boshqa o‘quvchilarning natijalari bilan taqqoslashi mumkin.

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarining shakllanganlik darajalarini aniqlashda, biz uchta – quyi (namuna bo‘yicha faoliyat olib borish), o‘rta (namuna yordamida qisman mustaqil faoliyat olib borish) va yuqori (mustaqil va ijodkorlik elementlari bilan faoliyatni olib borishning tadqiqotchilik xususiyati) darajalaridan foydalanildi.


1-jadval.

Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini o‘zlashtirganlik ko‘rsatkichlari

		Tajriba boshida		**Tajriba oxirida**	
		Tajriba guruhi	**Nazorat guruhi**	**Tajriba guruhi**	**Nazorat guruhi**
O‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini o‘zlashtirganlik darajasi	Respodent-lar soni	454	463	448	454
	Yuqori	24	25	72	28
	O‘rta	48	50	207	55
	Past	382	388	169	371
O’rtacha qiymat		3,21	3,22	3,78	3,24
Samaradorlik koef.		1,00		1,17	
Tanlanma dispersiya		0,27	0,28	0,49	0,31
Standart xatolik		0,52	0,53	0,70	0,56
Ishonchlilik oralig‘i		3,16	3,17	3,72	3,19
		3,26	3,26	3,85	3,30

X^2 kvadrat	0,02	183,07
Kritik qiymat	5,99	5,99
Kriteriy xulosasi	$\chi^2_{кузатув} \succ \chi^2_{критик}$ shart bajarilmagani uchun H_0 gipoteza qabul qilinadi	$\chi^2_{кузатув} \succ \chi^2_{критик}$ bo‘lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi

Ushbu samaradorlik ko‘rsatkichlarining statistik mezonga ko‘ra $\chi^2_{кузатув} \succ \chi^2_{критик}$ bo‘lgani, ishonch oralig‘larining bir biri bilan ustma-ust tushmasligi, hamda o‘qitish sifatini baholash ko‘rsatkichining birdan kattaligi, tinglovchilarning bilish darajasini baholash ko‘rsatkichining noldan kattaligi N_1 gipotezaning qabul qilinishiga olib keladi. Bu esa tajriba sinov ishlarining, ya’ni olib borilgan taqiqot ishining samaradorligi mavjud, degan xulosaga olib keladi.



4-rasm. Professional ta’lim muassasalari tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari.

Tajriba-sinov natijalari tahlili asosida ko‘rinib turibdiki, innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish darajasining mavjud shakllari, metodlari va vositalaridan unumli foydalangan holda ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan tajriba guruhi o‘quvchilarida uchala bosqich natijalariga ko‘ra, “X^2” metodi bo‘yicha tajriba guruhlarining nazorat guruhlariga nisbatan ko‘rsatkichlari 1.17 barobarga yuqori ekanligi aniqlandi. Tajriba-sinov ishida tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasi yuqori darajada shakllanishiga erishildi.

XULOSA

Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish metodikasiga yo’naltirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan didaktik, metodik, ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalar qilish imkonini berdi:

1. Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik, tashkiliy-metodik mazmuni falsafiy, pedagogik, didaktik jihatlari va tizimli, integrativ-modulli, kasbiy-texnologik, kompetensiyaviy yondashuvlar hamda integrativ tamoyillarining imkoniyatlari ochib berildi.

2. Tadqiqot muammosiga oid asosiy tushunchalar hisoblangan “innovatsion yondashuv” va metodologik yondashuvlarni amalga oshirish bosqichlari hamda “kompetentlik”, “kompetensiya”, “tadbirkorlik kompetensiyasi” tushunchalari mazmuniga mualliflik izohi berildi. Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tadbirkorlik bilimlarni egallash va uni takomillashtirish, guruhlarda, o‘zini-o‘zi boshqarish va nazorat qilish, tadbirkorlik o‘quv fani, kasblar bo‘yicha yakuniy attestatsiya bosqichlaridan iborat tadbirkorlik kompetensiyalarining tarkibiy komponentlari (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, refleksiya va kreativ) aniqlandi.

3. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda ta’lim jarayonini didaktik elementlarini an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy tahlili asosida tadbirkorlik kompetensiyalarining tayanch kompetensiyalari tarkibiy qismi sifatida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish iarxeasi ishlab chiqildi va uning tuzilmasi joriy etilgan.

4. Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishning didaktik tuzilmasi, modeli ishlab chiqildi, unga ko‘ra quyidagilarni amalga oshirish: tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga nazariy tayyorgarligi; shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari hamda innovatsion ta’lim texnologiya va metodlari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish; o‘quvchilarning o‘zaro tayyorgarligini tashkil etish; o‘quv jarayonida faollikni oshirish va natijalarni baholashga erishish kabilar belgilandi.

5. Olib borilgan tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda professional ta’lim muassasalarida ta’limning xalqaro standart tasniflagich darajalariga mos keluvchi ta’lim dasturlarini joriy etish murakkab jarayon hisoblanadi. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv asosida tadbirkorlikka yo‘naltirilgan o‘quv reja va o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, kasb-hunar maktablari uchun “Biznes asoslari”, kollej va texnikumlar uchun “Biznesni tashkil etish va yuritish” o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va professional

ta’lim tizimiga joriy etildi.

6. Tadqiqot davomida innovatsion yondashuvlar asosida professional ta’lim muassasasi o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantiruvchi “Tadbirkorlik g‘ildiragi” metodi, "Flipped Class" va 5 “W” metodlari asoslandi va o‘quv mashg‘ulotlari, shuningdek mustaqil ta’limga joriy etish metodikasining samaradorligi ochib berildi.

7. Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga motivasiya berish imkonini beruvchi “Mobile-learning” va BOYD texnologiyasi asosida tadbirkorlik faoliyatiga oid topshiriqlar to‘plamini qamrab olingan amaliy ish daftarlari va uning mobil-didaktik ta’minoti ishlab chiqildi va o‘quv jarayonini integrativ tashkil etish asosida mustaqil ta’limga mo‘ljallangan biznestadbir.uz yagona elektron platformasi ishlab chiqildi hamda uning multimedia resurslaridan iborat tashkiliy komponentlar mazmuni yaratilgan hamda tajriba-sinovdan o‘tkazildi.

8. Professional ta’lim muassasalari tadbirkorlik fani o‘qituvchilarini metodik qo‘llab quvvatlash imkonini beruvchi “Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish”, “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish”, “O‘quvchilarda biznes-reja tuzish kompetensiyasini shakllantirish” va “O‘zini-o‘zi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari”, “Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish” o‘quv-uslubiy ta’minoti, o‘qitish metodikalari, kompetensiyalarni baholashda topshiriqlar to‘plami ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga joriy etildi.

9. Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalari komponentlarini (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, refleksiya, kreativ) rivojlanganlik (yuqori, o‘rta, quyi) darajalarini baholovchi miqdor va sifat aspektlarida reproduktiv, produktiv, kreativ mezonlar mazmunan takomillashtirildi. Bu esa o‘qitish jarayoni sur’atlarini intensivlashtirish; tadbirkorlik faoliyatini yuritish va olib borish qobiliyati hamda ehtiyojlarini e’tiborga olish; mustaqil ishlarda samarali natijalarga erishish; o‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatidagi yutuqlarini doimiy tashqi va ichki nazoratini ta’minlash; o‘quvchilarning joriy, bosqich va yakuniy akademik ko‘rsatkichlarini to‘liq va maksimal darajada ob’ektiv baholash imkoniyatini aniqlashga asos bo‘ldi.

10. Innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi va “X^2” metodikasi bo‘yicha tajriba guruhlarining nazorat guruhlariga nisbatan o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllanganlik va amaliyotda qo‘llay olish darajasining samaradorligi darajalariga ko‘ra samaradorlik ko‘rsatkichi 1.17 (17%) barobarga oshishiga erishildi. Olingan natijalar tajtiba-sinov ishining samarali ekanligin tasdiqladi.

O‘tkazilgan nazariy izlanishlar va eksperimental tadqiqotlar natijasida innovatsion yondashuv asosida professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida

tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvga asoslangan o‘quv va mobil didaktik ta’minotni ta’lim jarayonlariga joriy etish.

2. Professional ta’lim muassasalarining o‘quv rejasiga innovatsion metodologik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan “Biznes asoslari” va “Biznesni tashkil etish va yuritish” o‘quv fanlarini kiritish.

3. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida innovatsion yondashuv va raqamlashtirish tamoyillari asosida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga yo’naltirilgan onlayn elektron platforma asosida qisqa muddatli o‘qitish kurslarini joriy etish.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

ИНСТИТУТ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

РАХМАТУЛЛАЕВА ДУРДОНА РАВШАНОВНА

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

13.00.05-Теория и методика профессионального образования

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук (DSc)

Ташкент – 2023

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистана под № B2023.3.DSc/Ped238.

Диссертация выполнена в Институте развития профессионального образования.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.ipitvet.uz) и Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Ходжабаев Анарбай Рустамович** доктор педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Муслимов Нарзулла Алиханович** доктор педагогических наук, профессор
	Юлдашев Максуджон Абдуллаевич доктор педагогических наук, профессор
	Тухтаева Зебо Шарифовна доктор педагогических наук, профессор
Ведущая организация:	**Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 по присуждению ученых степеней при Институте развития профессионального образования. (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Чимбай-2, дом 96. Тел.: +99871 246-92-17; E-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре института развития профессионального образования. (зарегистрирована под № _____). (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Чимбай-2, дом 96. Тел.: +99871 246-92-17; факс: +99871 246-90-37).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года
(протокол реестра рассылки № ____ от «_____» _____ 2023 года).

Р.Х.Джураев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н., академик

С.Ю.Ашурова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н., проф.

Х.Ш.Кодиров
Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.п.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Развитие предпринимательства во всем мире занимает ведущее место в решении вопросов не только интенсификации темпов роста национальной экономики, то также актуальных в настоящее время вопросов повышении темпов промышленного производства, обеспечения населения занятостью и повышения уровня жизни, сокращения бедности. В таких развитых странах, как Германия, США, Великобритания, Швейцария, Китай, оно служит для решения социальных вопросов и обеспечения населения занятостью, а также значительному увеличнению доли в валовом внутреннем продукте страны. Поэтому предпринимательская деятельность, являясь социально-экономической структурой общества, приобретает все более важное значение в качестве основного сегмента.

В условиях мировой глобализации одним из основных запросов молодежи наряду с образованием была создана потребность в ведении предпринимательской деятельности в сфере своей деятельности и воспитании ее как всесторонне компетентных специалистов на уровне мировых требований. На рынке труда он выдвигает задачу поднять качество подготовки рабочих и специалистов на высший уровень, при котором уровень квалификации этих специалистов выше, чем сложность выполняемой ими профессиональной работы, а на перспективу специалист может реагировать не только на современное состояние производства и экономики в стране, но необходимо развивать профессионально-квалификационную структуру рабочего персонала, в основе которой лежит усиление значения предпринимательской части профессии, которая дает возможность оперативно влиять на быстро меняющиеся условия и технологии производства. В процессе исследований, проводимых Агентством США по международному развитию (USAID), The Young American Business Trust (YABT) и Global Entrepreneurship Monitor (GEM), формирование предпринимательских идей в проявлении студентов как компетентных специалистов, инновационный вместе с образованием на основе подхода формировать у студентов необходимые компетенции для начала предпринимательской деятельности и осуществлять методическую поддержку деятельности для организации ими в будущем собственной предпринимательской деятельности по профессии, а причина в том, что это направление недостаточно развито.

В нашей стране устойчивое развитие предпринимательской деятельности и поддрежка ее государством также являются одним из основных направлений социально-экономического развития страны. В частности, сегодня одними из приоритетных задач являются обеспечение занятости посредством широкого привлечения к предпринимательской деятельности специалистов среднего звена, молодежи в сельской местности, обеспечение такого участия самостоятельно мыслящей молодежи с глубокими знаниями, высоким

культурным уровнем, способностью адаптации к социально-экономическим изменениям, происходящим в нашей стране. «Под активным предпринимателем мы подразумеваем деловых людей, способных производить конкурентоспособную продукцию, а главное, создавать новые рабочие места и содержать не только себя и свою семью, но и приносить пользу обществу в целом. Нашей первостепенной задачей должно стать расширение рядов таких предпринимателей, в том числе создание для них достойных условий, чтобы ввозить в нашу страну и внедрять высокие технологии, технику и оборудование, основанные на последних достижениях науки»[1]. С этой точки зрения актуально совершенствование теории и методики формирования предпринимательских компетенций у студентов профессиональных учебных заведений, ее дидактических возможностей и учебно-методического обеспечения на основе инновационного подхода..

Настоящая диссертация в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, Законе Республики Узбекистан ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года “Об образовании”, УП-5812 от 6 сентября 2019 года “О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования”, УП-6208 от 21 апреля 2021 года “О дополнительных мерах по поддержке предпринимательской деятельности, содействию занятости, социальной защите и содержательной организации свободного времени молодежи”, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 466 от 7 августа 2020 года “Об утверждении нормативных правовых актов, регулирующих систему непрерывного начального, среднего и среднего специального профессионального образования в Республике Узбекистан” и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технолгий республики I. “Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации[2]. Научные изыскания, посвященные формированию предпринимательских компетенций у молодежи и учащихся образовательных учреждений, проводятся в таких передовых научных-исследовательских центрах и авторитетных образовательных учреждениях мира, как специализированная организация “Управление малого бизнеса” в США (Small Business

[1] Poslanie Prezidenta Respubliki Uzbekistan Sh.Mirziyoeva Oliy Majlisu. – T, 2019.

[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi https://free-apply.com/university/1080400233, https://www.ediindia.org/, https://www.kcl.ac.uk/entrepreneurship/skills-programme https://thegedi.org/germany/, https://www.mastersportal.com/study-options/270155862/entrepreneurship-china.html, http://www.jigyo.ac.jp/international/english/, http://www.rusacad.ru/

Administration – SBA)[3] и Уортонская школа бизнеса[4], Entrepreneurship Development Institute (Индия), School of Business and Entrepreneurship of Bath Spa University (Англия)[5], Cologne Business School (Германия)[6], Hong kong ust business school (Китай)[7], Goodman School of Business (Канада)[8], Предпринимательская академия (Россия), Будапештская школа бизнеса (Будапешт)[9], Колледж Международной Академии Бизнеса (Казахстан)[10], Tashkent Academy of Business Administration и Центр поддержки предпринимательства молодежи Узбекистана (Ташкент)[11].

Достигнут ряд следующих важных научных и практических результатов, относящихся к проблеме настоящего исследования, а именно: по проблеме развития теоретических и практических основ формирования предпринимательских компетенций у учащихся: создана система формирования предпринимательских компетенций посредством практических упражнений, развития повседневных навыков и опыта на основе личностно-ориентированного обучения, а также составления бизнес-плана и системы их оценки (Колледж международной академии бизнеса, Казахстан); разработаны навыки ведения бизнеса учащимися и методы разработки и внедрения в практику идей, обеспечивающих экономический рост в инновационном и глобальном масштабах (США); разработаны понятия навыков предпринимательства и предпринимательского образования, дорожные карты путей достижения успеха и создания инноваций (Англия); организованы консалтинговые услуги “Молодые предприниматели” по формированию предпринимательских компетенций у учащихся, консультированию и ведению предпринимательской деятельности (Канада), усовершенствованы правила психологии ведения бизнеса, развития предпринимательских компетенций и успешного ведения бизнеса (Германия); усовершенствованы проекты по формированию и развитию навыков осуществления предпринимательской деятельности в мировом масштабе (Китай); сформированы формы нетрадиционного обучения, методы формирования предпринимательских компетенций на основе деловых игр и современных дидактических средств (Россия), усовершенствованы пути достижения успеха в осуществлении бизнес-деятельности (Будапешт); сформированы процесс создания, отбора start-up идей и процессы формирования компетенций при осуществлении предпринимательской деятельности (Узбекистан).

В Германии, США, Англии, Китае, России и других развитых странах проводится большая работа по модернизации системы формирования предпринимательской компетентности студентов. Используемые в них

[3] https://www.sba.gov/business-guide/plan-your-business/fund-your-business
[4] https://www.wharton.upenn.edu/
[5] https://www.bathspa.ac.uk/courses/ug-business-and-management-entrepreneurship/ ;
[6] https://karandash.ua/countries/germany/cologne-business-school/
[7] http://www.bm.ust.hk/en-us/the-school/mission
[8] https://brocku.ca/goodman/
[9] https://amp.google-info.org/6526577/1/budapeshtskaya-shkola-biznesa.html#article
[10] https://cmab.kz/index.php/obuchenie/shkola-predprinimatelstva-i-biznesa
[11] https://yoshtadbirkor.uz/uzbek, chamber.uz

современные технологии обучения (имитационное обучение, деловые и ролевые игры, взаимное обучение или взаимное консультирование) способствуют формированию у студентов профессиональных учебных заведений предпринимательских компетенций и их интеллектуальному развитию, обеспечивают творческий рост, всестороннее индивидуальное развитие.

Степень изученности проблемы. Осуществлены научно-исследовательские работы по вопросам формирования и развития профессионального образования, совершенствования теории и методики профессионального образования такими учеными, как Р.Х.Жураев, Ш.Э.Курбонов, Х.Ф.Рашидов, А.Р.Ходжабаев, У.И.Иноятов, Д.Д.Шарипова, Н.А.Муслимов, З.К.Исмаилова, К.Олимов, С.Ю.Ашурова, М.Б.Уразова, Ж.А.Хамидов[12] и другими.

Изучение и анализ сущности и содержания таких понятий, как “компетенция” и “компетентность” в профессиональном образовании, их формирования и развития отражено в работах таких отечественных ученых, как Н.А.Муслимов, Ш.С.Шарипов, М.Б.Уразова, О.А.Куйсинов и других, а также исследованы такими зарубежными учеными, как R.Boyasis, K.Kameron, R.Kuinn, R.Marr, Dj.Raven, S.Uiddet, S.Xolliford, В.И.Байденко, А.А.Вербицкий, Н.А.Гришина, Э.Ф.Зеер, И.А.Зимняя, Н.В.Кузьмина, А.И.Кулешова, А.К.Маркова, Н.В.Скачкова, А.В.Хуторский.

Исследованием проблем теоретических основ предпринимательской деятельности и ее развития занимались такие отечественные ученые, как Б.Ю.Ходиев, С.Гуломов, К.Абдурахмонов, К.Муфтайдинов, З.Я.Худайбердиев, Г.К.Абдурахмонова, Ж.Урманов, М.Р.Болтабоев, М.С.Косимова, О.Арипов[13], У.Гофуров, Н.С.Касымова[14] и другие; а также

---

[12] Djurayev R.X. Organizatsionno-pedagogicheskie osnovы intensifikatsii sistemi professionalnogo podgotovki v uchebnix zavedeniyax professionalnogo obrazovaniya: Avtoref. diss … dok.ped.nauk.-T.:1995.-43s.; Xodjaboyev A.R. Nauchno pedagogicheskie osnovы uchebno-metodicheskogo kompleksa podgotovki uchitelya truda. Dis. dok. ped. nauk. –T.: 1992. -406 s.; Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy – metodik asoslari.: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. –B. 275.; Sharipova D. Ispolzovanie zdorovesberegayushix texnologiy v sisteme neprerыvnogo obrazovaniya v selyax duxovnonravstvennogo i kulturnogo razvitiya podrastayuщego pokoleniya / Monografiya. – Tashkent: Fan va texnologiyalar, 2014. – 116 s.; Urazova M.B. Bo‘lajak kasb ta’lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoreferati. – T.: 2015.-78 b., Hamidov J.A Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qituvchining zamonaviy didaktik vaositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi. Ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – T.: 2017. 70 b.

[13] O.Aripov Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. –T.: 2020. –B.253.

